



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



37	Ruxshona XASANBOYEVA, Xorazm xalfachilik san'ati: tarixiy ildizlari, ijro an'analari va zamonaviy talqini	621
38	Munisa ABDULLAYEVA, Bolalar folklori va poetikasi	624
39	Tursımay JORABAEVA, Fitrat pen Axmet Baytırsınyı shıyǵarmalarındag'ı ruhani yndestik pen ag'artushylyq ideyalar	629
40	O'g'ıloy G'ANIYEVA, O'zbek va turk maqollarida badiiy tasvir vositalari	631
41	Umida ABDUXALIQOVA, “Go'ro'g'lining tug'ilishi” dostonida bola obrazi	634
42	Farangiz ESHMO'MINOVA, O'zbek bolalar folklorining o'rganilishi	636
43	Shaxlo MINGNOROVA, Shonazar Shoabdurahmonovning folklorshunoslik faoliyati	638
44	Gulsanam SHOKIROVA (XOLMIRZAYEVA), Uychi shevasi leksikasidan	640
45	Sarvinov XUDOYBERDIYEVA, Norin shevasining ayrim fonetik xususiyatlari	643
46	Manzura MASTONOVA, O'zbek xalq ertaklari va qozoq xalq ertaklarida umuminsoniy qadriyatlar	647
47	Xayrullo ASHUROV, Kulguda aks etgan haqiqat: o'zbek folklorida satira va yumorning ijtimoiy-estetik vazifasi	650
48	Sevinch QURBONNAZAROVA, Xorazm shevasida ko'rsatish olmoshlarining funksional-semantik xususiyatlari	649
49	Sevinch OSTONOVA, Allaning turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o'rni	656
50	Xayriniso ESHMURATOVA, O'zbek shevalarida kiyim nomlari	659
51	Dinora ABIRQULOVA, “Go'ro'g'li” turkumi dostonlarida qahramonning safarga chiqish jarayoni tahlili	664
52	Munisa ESHMATOVA, Tohir Malikning “Murdalar gapirmaydilar” qissasida yetimlik muammosi ma'naviy tanazzul sifatida	669
53	Munira JUMANIYOZOVA, Xorazm viloyati hazorasp tumani shevasida kelishik kategoriyasining qo'llanishi	677
54	Ohista RAHIMQULOVA, G'ani Jahongirov va bolalar o'yin folklori	680
55	Durdona ZOKIROVA Marosim folklorining bugungi kundagi ahamiyati va zamonaviylik xususiyati	684
56	Marjona ABDUMAJITOVA Toshkent viloyati shevalarini leksik jihatdan bazi tahlili	686
57	Nigora MENGLIYEVA, O'zbek va turk tillarida 771omatic iboralarning o'rganilish darajasi	689
58	Marjona HAZRATQULOVA, Qorako'l shevasining tasniflardagi o'rni	694
59	Sabrina MUBINOVA, Buxoro shahar o'zbek-tojik shevalarini o'rganilishi	700

BOLALAR FOLKLORI VA POETIKASI

THE POETICS OF CHILDREN'S FOLKLORE

Munisa ABDULLAYEVA,

TOSHDOTAU talabasi

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/BUSC2124

Annotation. *This article extensively covers Uzbek children's folklore and its poetic features. The relationship between folklore and written children's literature is analyzed. Also, the genres of children's folklore – fairy tales, songs, games and their educational and aesthetic significance are scientifically revealed. The article analyzes the content and essence of children's games and songs, their variants, compositional structure and their role in folk pedagogy based on examples.*

Key words: *children's folklore, poetics, Uzbek folklore, folk oral art, children's games, children's songs, fairy tales, folklorism, stylization, folk pedagogy, genres, educational significance, tradition, oral literature.*

Bolalar folklori har bir millatning madaniy merosi, ma'naviy boyligining ajralmas qismini tashkil etadi. U avlodlar avlodga o'tib kelayotgan xalq donishmandligini, hayotiy tajribasini, axloqiy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan holda, yosh avlodning dunyoqarashini shakllantirishda, ularning tafakkurini o'stirishda va estetik didini rivojlantirishda beqiyos rol o'ynaydi. Bolalar folklori nafaqat ko'ngil ochish vositasi, balki murakkab dunyoni tushunish, tilda ifodalash va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiruvchi muhim tarbiya omilidir. O'zbek bolalar folklori, o'zining boy janriy xilma-xilligi, rang-barang obrazlari, sodda va tushunarli tili bilan ajralib turadi. Unda xalqning hayot tarzi, urf-odatlar, orzu-umidlari o'z aksini topgan. Xususan, xalq ertaklari, qo'shiqlar, topishmoqlar, tez aytishlar, maqollar va chaqaloqlar uchun aytiladigan allalar, beshik qo'shiqlar kabi janrlar bolalarning yoshiga mos ravishda ularning ongiga ta'sir ko'rsatadi, xayolotini boyitadi va nutqini rivojlantiradi. Biroq, zamonaviy sharoitda bolalar folklorining o'rnini, uning o'ziga xos poetik xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalari ilmiy jihatdan yetarlicha tadqiq etilmagan. Ayniqsa, folklor janrlarining shakllanishi, ularning badiiy-estetik qiymati va zamonaviy bolalar adabiyotida aks etishi masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – o'zbek bolalar folklorining poetik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish, uning asosiy janrlarining o'ziga xosligini ochib berish hamda folklor namunalarining avlodlar avlodga o'tish jarayonidagi o'zgarishlar va rivojlanish bosqichlarini aniqlashdir. Tadqiqotda bolalar folklorining tili, obrazlar tizimi, badiiy san'atlari va tarbiyaviy ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy bolalar adabiyotida folklor uslublari va motivlarining qo'llanilishi hamda bu jarayonning o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqiladi. Bu esa, bolalar folklorini yanada chuqurroq tushunishga va uni kelgusi avlodlarga samarali yetkazish yo'llarini izlashga yordam beradi. O'zbek bolalar o'zlarining xilma xil o'yinlari va rang-barang janrdagi qo'shiq repertuarlarini yaratganlarki, ularda bolalikning qalb tebranishlari qiziqish va ehtirolari, voqelikka munosabatidagi o'ziga xosliklari, psixologiyasi balqib turadi. Bugungi kunda topishmoqlar, tez aytishlar va qo'g'irchoq teatrining tom ma'noda bolalarniki bo'lib qolgani hech kimda shubha uyg'otmaydi. Ana shu taxlitda o'yinlar qo'shiqlar og'zaki nasr muqallid yoki og'izaki teatr tarzida tarmoqlangan va o'zaro chambarchas bog'lanib bir butunlik holatiga kirgan o'zbek bolalar folklori shakllanib ulgiran.

Qo'shiqlar. Bolalar ijodkorligi va ijrochiligida salmoqli movqega ega bo'lgan qo'shiqlar tabiatiga ko'ra lirik va hajviy mohiyatiga molikligi bilan ajralib turadi. Onalar allalaridan ritmik uquvi shakllana boshlagan kichkintoylarga 2-5 yoshlaridayoq o'z xatti harakatlari va o'yinlari

ritmik jihatdan baholash va boshqarishgina bo'lmay ularning o'sha xatti harakatlari o'yinlaridagi hayotiy mazmunni ritmga solishdan iborat poetik ko'tarinkilik hisoblanadi [T.Mirzayev 2021, 182]. Shu sababli ular shovqin solib aytiladi va aksar holatlarda ikki satrdan oshmaydi. Bolalar ham xazil-mutoyibaga alohida rag'bat bilan qarashadi bir-birlarida tabiiy yoki ma'naviy qusur hamda kamchiliklarni payqashgan zahotiyoq tap tortmasdan ayashmay avvaliga nomga qofiyadosh laqab topib keyinroq jarayon chuqurlashgani sari shu laqabning ohangdoshligiga uyg'unlashgan hazilni chuqurlashtirib mazax qilishadi, tegishadi, hatto ota-onalaridagi nojo'ya xatti harakatlarini ham boplab yuzlariga solishadi. Bolalar aql-idrokklar to'lisha va teranlasha borgani sari ijtimoiy voqelikka ham faolroq munosabatda bo'lishga harakat qiladilar. Ana shunday taasurat zahirida ularning folklor bisotida hajviy yoki satirik va yumoristik qo'shiqlar silsilasi yuzaga kelgan.

O'yinlar bolalar faoliyatida alohida rol o'ynaydi va bolalar o'yin folklori sifatida maxsus guruhni tashkil etadi. Qolaversa o'yinlarning o'zi ham harakat maqsadiga ko'ra ikki katta guruhga bo'linadi [T.Mirzayev, 2021:181].

Harakatli o'yinlar. Ma'lumki bolalarning bunday o'yinlari asosini harakat tashkil etadi. Ammo harakat esa o'z-o'zidan voqelikka aylanmaydi uning yuzaga kelishida taqlid narsa va poetik so'z vosita vazifasini o'taydi. Shu xususiyatiga ko'ra harakatli o'yinlarning 3 ichki tipga ajratiladi.

- taqlid negizida qurilgan harakatli o'yinlar;
- narsa yoki o'yinchoqlar harakatni boshqaradigan o'yinlar
- poetik so'z harakatni boshqaradigan o'yinlar [Mirzayev, 2021: 183].

Shuni alohida takidlash joizki, bolalar ijrochilikda o'yinlar qo'shiqlar bilan ziynatlangani tufayli favqulotda estetik mohiyat kasb etgan. Zero, qo'shiq harakatdan iborat o'yinlarning ajralmas uzviy qismi sifatida ularning mazmundorligini to'ldirishga harakat qilgan, aniqrog'i, qo'shiq bolalarni o'yinga chorlaydi, yo ular o'yiniga muqaddima bo'ladi, yo o'yin uchun shart vazifasini o'taydi. Bunday vaziyatda u o'yinning debochasini tashkil qiladi yo o'yindagi harakatning yunalishini belgilab, drammatik holatni yuzga keltiradi yo o'yinga yakun yasab, ishtirokchilarni tarqalishiga davat etadi. Bunday qo'shiqlar o'yinning tarkibiy qismi sanaladi. Chorlamalar, cheklashmachoqlar, sanamalar, shuningdek, o'yindagi harakatni boshqaruvchi badihalar va tarqalmachoqlar shunday harakterga ega.

Ma'naviy yoki so'z o'yinlari. Bolalar so'z bilan o'ynab, ma'naviy kamolat pillapoyalaridan ildamlaydi. Bola o'z kamolotining ilk bosqichiida so'z ma'nosini anglashdan yiroq turadi. Biroq so'zning sehrli olamiga u bilan o'ynab turib kira boradi.

Bolalar qo'shiqlarida variantlilik. Bolalarni erkalovchi qo'shiqlar: 1. Beshik qo'shiqlari: a) allalar; b) aytim-olqishlar; c) bax-bavaklar. 2. Suyish qo'shiqlari: a) erkalamalar; b) ovutmachoqlar; c) qiziqmachoqlar. Bolalarning hajviy qo'shiqlari: tegishmachoqlar, masxaralamalar. Xarakatli o'yinlarga aloqador qo'shiqlar: a) chorlamalar b) cheklashmachoqlar c) sanamalar d) tarqalish qo'shiqlari. So'z o'yinlar a) guldur- guplar b) chandishlar c) tez aytishlar. [Mirzayev, 2021: 185].

Bolalar folklori poetikasi deganda, bolalar ijodidagi badiiy ifoda vositalari, ritmik tuzilish, ohang, obrazlilik va kompozitsion xususiyatlar tushuniladi.

Ushbu folklor turining asosiy poetik belgilariga quyidagilar kiradi: Ritm va takror – bolalar qo'shiqlarida tez-tez takrorlanadigan so'z va iboralar ohangdorlikni oshiradi. Oddiy va obrazli til – bolalarning tushunish darajasiga mos, sodda, ammo tasviriy ifodalar qo'llaniladi. Dialogik shakl – ko'plab o'yinlar savol-javob yoki rollarga bo'linib ijro etiladi. Harakat va so'z uyg'unligi – qo'shiq va jismoniy harakat birgalikda amalga oshiriladi. Ramziy obrazlar – tabiat, hayvonot va kundalik hayot unsurlari orqali badiiy ifoda yaratiladi. Yurtimizning turli hududlarida bolalar folklori umumiy asosga ega bo'lsa-da, har bir viloyatning tabiiy sharoiti, turmush tarzi va madaniy an'analari ta'sirida o'ziga xos shakllangan. Quyida ayrim viloyatlar misolida bu farqlar ko'rib chiqamiz. Masalan: Xorazm bolalar folklori o'zining yuqori ritmikligi va jo'shqinligi bilan ajralib turadi. Bu hududdagi o'yinlar ko'pincha jamoaviy tarzda o'tkaziladi. Mashhur o'yinlari:

“Chittigul”, “Oq terakmi, ko‘k terak”, “Qushim uchdi”. Mazmun jihatidan bu o‘yinlar: jamoaviylikni mustahkamlaydi, tezkorlik va e‘tibor talab qiladi, tabiat obrazlari orqali bolalarda tasavvur uyg‘otadi. Masalan, “Chittigul” o‘yini davomida bolalar qo‘shiq aytib aylana hosil qiladi, bu esa birlik va hamjihatlik ramzi sifatida talqin etiladi. Dunyo sivilizatsiyasi tarixida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan Xorazm viloyatida qadimdan ko‘proq turkiy ajdodlarimizning o‘g‘iz shevasiga mansub aholisi yashab kelganligi sababli bu yer xalqi marosimlarni, maishiy turmush, og‘zaki ijodida ham o‘g‘iz qabilalarining an‘anasi yetakchilik qiladi. Bu ma‘lum darajada bolalar folkloriga ham o‘z tasirini o‘tkazadi. Qashqadaryo viloyatida bolalar orasida “G‘ozlarim”, “Laylak keldi”, “Chappak tosh” o‘yinlari mavjud. Samarqand viloyatida “Non – non”, “Jamalak soch”, “Bo‘ri bosar” o‘yinlari bolalar orasida keng tarqalgan. G‘ozlarim o‘yini alohida ajralib turuvchi dialog tarzda kechadi:

G‘ozlarim!

G‘a- g‘a

Kelinglar.

Qo‘rqamiz.

Nimadan?

Bo‘ridan.

Bo‘ri qayerda?

Ola toqqa.

Shu kabi dialog tarzda o‘ynaladi. Bunda 5-10 ta bolalar ishtirok etishadi. Ularning biri ona g‘oz qolganlari esa bolalari bo‘lishadi. Ona g‘oz va bolalar o‘rtasidagi suhbat xuddi shu tarzda kechadi. Samarqand viloyati, Ishtihon tumanida mavjud bo‘lgan “Non – non” o‘yini ham yuqorida aytib o‘tilgan “G‘ozlarim” o‘yiniga o‘xshash tarzda o‘ynaladi. “Bo‘ribosar” o‘yini shahmatga o‘xshatib katta katak chiziladi. Shu katakchada “B” harfi bo‘lsa bo‘ri bo‘ladi qolganlari oddiy odamlar bo‘lib bo‘ri faqat “B” deb yozilgan katakchalardan yuradi. Agar oddiy odamlar bo‘rining katagiga kirib qolsa ularni bo‘ri yeb qo‘yadi. Bu o‘yinda zukkolik talab qilinadi. “Jamalak soch” o‘yini qizlar dumaloq shaklda o‘tirib olishadi. Bir qiz turib rumolcha oladi qo‘liga va “Jamalak soch” deb qo‘shiq aytib istagan boshqa qizni qo‘liga tashlab ketadi. Ro‘molchani olgan qiz va ro‘molchani bergan qiz bilan barcha qizlarni atrofini aylanib quvlashmashoq o‘ynaydi. [Dala ma‘lumotlari]. Shu tarzda davom etib ketaveradi. Bu o‘yin boshqa hududlarda “Rumolcha” nomi bilan ham o‘ynaladi. Ushbu viloyatda bolalar folklori ko‘proq fasllar, ayniqsa bahor mavzusi bilan bog‘liq. Mashhur o‘yinlar: “Boychechak”, “Oftob chiqdi olamga”, “Berkinmashoq”. Bu o‘yinlarning mazmuni: tabiat uyg‘onishi, hayotiylik va yangilanish, kuzatuvchanlik va topqirlikni rivojlantirishga qaratilgan. Poetik jihatdan bu hududdagi o‘yinlarda takroriy she‘riy satrlar va ramziy obrazlar keng qo‘llaniladi. Buxoro viloyati bolalar folklori o‘zining ma‘naviy va axloqiy yo‘nalishi bilan ajralib turadi. Mashhur o‘yinlar: “Laylak keldi”, “Alla-yo-alla”, topishmoq va tez aytish o‘yinlari. Mazmun jihatidan: oilaviy qadriyatlar, mehr-oqibat, axloqiy tarbiya asosiy o‘rin tutadi. Bu hududdagi folklor namunalari ko‘pincha qo‘shiq shaklida bo‘lib, badiiy obrazlar va ramziy ifodalar bilan boyitilgan. [Boychechak. Qo‘shiqlar. 1984]. Qashqadaryo, Surxandaryo viloyatlarida bolalar o‘yinlari ko‘proq jismoniy harakat va kuch talab qiluvchi xususiyatga ega. Mashhur o‘yinlar: “Chillak”, “Arqon tortish”, “Ko‘z bog‘lash”. Mazmun jihatidan: jismoniy chiniqish, epchillik va chaqqonlik, jamoaviy raqobat muhim hisoblanadi. Poetik jihatdan bu o‘yinlar qisqa buyruq gaplar, chaqiriqlar va tezkor dialoglar asosida quriladi. Umumlashtirib aytganda bu o‘yinlar quyudagi xususiyatlarni qamrab oladi. **Jismoniy rivojlanish** – harakatli o‘yinlar orqali sog‘lom o‘sish ta‘minlanadi. **Aqliy rivojlanish** – topishmoq va tez aytishlar tafakkurni rivojlantiradi. **Ijtimoiylashuv** – jamoaviy o‘yinlar orqali bolalar muloqotga kirishadi. **Milliy qadriyatlar** – xalq an‘analari va urf-odatlar bolalar ongiga singdiriladi. [Ro‘zmetov, 2004].

O‘zbek bolalar folklorining poetik xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida aniqlangan natijalar, ushbu noyob madaniy merosning nafaqat estetik, balki tarbiyaviy va ma‘naviy ahamiyatini ham yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Bolalar folklori, uning janriy xilma-xilligi, obrazlar tizimi va til xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ertaklardagi takrorlanuvchi



tuzilmalar, oddiy syujetlar va aniq g'oyalar bolalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirib, dunyoni tushunishlariga yordam beradi. Yaxshilik va yomonlikning o'zaro kurashi, doimo yaxshilikning g'alaba qozonishi bolalarda adolat va haqqoniylik tuyg'usini shakllantiradi. Bu, ayniqsa, psixologiya fanida qayd etilganidek, bolalarning axloqiy kategoriyalarni shakllantirish bosqichida muhim ahamiyatga ega. Qo'shiqlarning musiqaviyligi va ritmik tuzilishi bolalarning tinglash qobiliyatini, xotirasini va nutqini rivojlantiradi. Allalar va beshik qo'shiqlar, xususan, chaqaloqlarning hissiy rivojlanishi, onaga bog'liqligi va xavfsizlik hissinin kuchaytirishda katta rol o'ynaydi. Bu jihatlar, hatto zamonaviy psixologik tadqiqotlarda ham o'z tasdig'ini topgan. Topishmoqlar va tez aytishlar bolalarning kuzatuvchanligini, tezkor fikrlashini va nutq aniqqligini oshiradi. Ularda qo'llanilgan metaforalar va obrazlar bolalarning tasavvurini boyitadi va ijodiy fikrlashiga undaydi. Maqollar va hikmatli so'zlar esa, avlodlar davomida to'plangan hayotiy tajribani, axloqiy me'yorlarni bolalarga singdirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu, ayniqsa, milliy qadriyatlarni avlodlarga yetkazishda katta ahamiyatga ega. Zamonaviy o'zbek bolalar adabiyoti bilan folklor o'rtasidagi aloqadorlikni o'rganish shuni ko'rsatadiki, folklor nafaqat ilhom manbai, balki zamonaviy asarlar uchun o'ziga xos badiiy-estetik maktab hamdir. Yozuvchilar va shoirlar folklorning boy lug'aviy va obrazlar tizimidan foydalanib, o'z asarlarini yanada boyitishlari mumkin. Biroq, bu jarayonda folklorning asl ruhini yo'qotmaslik, uni zamonaviy dunyoqarash bilan uyg'unlashtirish muhimdir. Ba'zi hollarda, zamonaviy asarlarda folklor motivlaridan foydalanishda ularning asl mohiyatidan chetlanish holatlari ham kuzatilishi mumkin. Bu esa, folklorning tarbiyaviy va ma'naviy ta'sir kuchini pasaytirishi mumkin. Shuning uchun, folklor namunalari ijodiy interpretatsiya qilishda ehtiyotkorlik va mas'uliyat talab etiladi. Poetik nuqtai nazardan, bolalar folklori soddalik va murakkablik dialektikasini o'zida mujassam etadi. Soddalik – janrlarning tushunarliqligi va yodlash osonligida, murakkablik esa ularning chuqur tarbiyaviy falsafasidir. Hududiy farqlarning mavjudligi folklorning statik emas, balki jonli jarayon ekanligini, har bir hudud o'zining ijtimoiy-madaniy muhitini bolalar ijodiga singdirib borishini anglatadi. Masalan, allalardagi metaforik tizim ona-bola munosabatlarining muqaddasligini ko'rsatadi. Erkalamalardagi ritmik tuzilma esa bolaning nutqiy rivojlanish bosqichlariga moslashtirilgan. Xalq o'yinlaridagi musobaqa elementlari esa raqobat muhitini sog'lom shakllantirishga xizmat qiladi. Bu natijalar zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar folkloridan foydalanish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi. Biroq, globallashtirish davrida bu an'analarning yo'qolib borish xavfi mavjud bo'lib, ularni raqamli formatda saqlash va targ'ib qilish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Xalq o'yinlarida obrazlar talqini g'oyaviy mazmuni konfilkti syujet va kompozitsiyasi jihatidan o'ziga xoslik kasb etuvchi og'zaki dramatik asarlardir. Faqat ularning asosiy ijrochisi bolalar bo'lib ko'p xollarda ramziy mazmun mohiyat kasb etadi. Xalq o'yinlari o'ziga xos kompozitsiyasi tarbiyaviy mantiqi, tashkil qilish o'rni va usuliga ko'ra mustaqil janr sifatida namayon bo'ladi. O'yinlarda ideal qahramonga aylanish uchun intilish raqib kuchlarga qarshi chiqish, ularga qarshi matonat va shujoat bilan kurashish, g'alabani qo'lga kiritish, xaqiqatni izlash, asr tushgan o'rtoqlarni qutqarish, ozodlik va to'g'rilik sari intilish odamiylik tashviq qilinadi. O'yinlardagi aksariyat motivlar mif, afsona, ertak va dostonlarda ham uchraydi. Bu an'anaviy epik motivlar ibtidoiy madaniyat davridagi mehnat jarayoni qadimgi kishilar ijtimoiy hayotidagi voqea hodisalar yig'indisini o'zida ifoda etadi. Xalq o'yinlarining paydo bo'lishida qadimiy ajdodlarimizning turmush tarsi, urf-odatlarini marosimlari mifologik va diniy tasavvur tushunchalari hal qiluvchi rol o'ynagan. Ularga konkret voqea hodisalar asos bo'lgani uchun voqeabandlik o'yinlarning eng muhim xususiyati hisoblanadi biror voqeani harakat va so'z uyg'unligida yoki sof harakat orqali ko'rsatib berish yetakchilik qiladi. O'yinlarda syujet asosini tashkil etgan voqea- hodisalarning realligi qadimiyligini ko'rsatuvchi belgilar bilan talay. Masalan o'yinlarda hamisha g'olib kelishga intilish o'yinning g'alaba bilan yakun topishi uning qadimiyligidan dalolat beradi va bu epik an'anaga mos keladi. O'yinda ishtirok etuvchi persanajlarning kim ekani, ismi, kasbi kori, amali yoki laqabining mali qilinishi uning realigini ko'rsatib turadi. Ayrim o'yinlar kult sanalgan jonivorlar nomi bilan atalib ular asosiy persanaj bo'lib xizmat qiladi. Bolalar mehr bilan ularga taqlid qilib o'ynaydilar. Bu xil

o‘yinlarning kelib chiqishiga ibtidoiy kishilarning totem va kult hayvonlarga sig‘inib o‘tkazadigan marosimlari yetarli ta’sir ko‘rsatganligi, shubhasiz. O‘yinlar orasida an’anaviylik, sehrli raqamlar bilan bog‘liq tushunchalarni o‘zida saqlab qolgan “Besh tosh”, “Uch tosh”, “Yetti tosh” kabilar ham bor. Shuningdek, o‘yin jarayonida uning shartini bajarish uchun 3 marta aylanish, 3 marta sakrash, 3 tomonga bo‘lishib ketish, 3 marta ilib olish kabi xatti harkatlar 3 raqami bilan bog‘liq magik qarashlarni o‘zida ifoda etadi. O‘yinlarda tayyor qolipga aylangan juda ko‘p xarakat tiplarini kuzatish mumkin. Jumladan, aylanada “qotib” qolish aylanada “qotib” qolgan bolani qutqarish, 3 marta aylanish, 3 marta sakrash kabilar bunga misol bo‘la oladi. [Musaqulov, 1995: 68].

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek bolalar folklori janrlar rang barangligi asarlar badiiyati va son ko‘lami jihatidan boshqa xalqlar og‘zaki ijodi qatoridan munosib o‘rin olishga loyiqdir. Bolalar folklori namunalari o‘zbekning o‘z farzandi tarbiyasiga, binobarin, xalqning yurtining kelajagiga ma’suliyat tuyg‘usini yaxshi his etganini, qanchalar e’tibor bilan qaraganini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bolalar folklori (darslik) 2020.
2. Boychechak. Qo‘shiqlar. – Toshkent. 1984.
3. Mirzayev T. O‘zbek folklorining epik janrlari. – Toshkent. Darslik, 2021.
4. Musaqllov A. O‘zbek xalq lirikasi. – Toshkent: Fan, 1995.
5. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 1978-yil. Ohunjon Safarov.
6. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 1995-yil. 4-soni. Ohunjon Safarov.
7. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 2004-yil. 4-soni. Xamid Ro‘zmetov.